

Egamberdiyeva Kumush Asadulla qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnda sukut hodisasining eksplitsit va implitsit ifodalanish mexanizmlari ilmiy jihatdan qayta talqin qilinadi. Unda sukut faqat nutqning yo‘qligi sifatida emas, balki mustaqil semantik va pragmatik yuklamaga ega badiiy vosita sifatida izohlanadi. Eksplitsit sukut til birliklari orqali ochiq ifodalansa, implitsit sukut kontekst, subtekst hamda yashirin ma’no qatlamlari orqali anglashilishi asoslanadi. Tadqiqot davomida sukutning personaj psixologiyasini ochish, ichki kechinmalarni yetkazish va badiiy ta’sirchanlikni oshirishdagi funksional imkoniyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Natijada sukutning badiiy kommunikatsiyadagi o‘rni va ahamiyati konseptual jihatdan umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: Sukut, badiiy matn, eksplitsit ifoda, implitsit ifoda, subtekst, pragmatika, semantika, badiiy vosita, personaj psixologiyasi, ichki nutq, badiiy kommunikatsiya, kontekst.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЭКСПЛИЦИТНЫХ И ИМПЛИЦИТНЫХ ФОРМ МОЛЧАНИЯ В ЛИТЕРАТУРНОМ ТЕКСТЕ

Эгамбердиева Кумуш Асадулла кызы

Шахрисабзский государственный педагогический институт

направление Узбекский язык и литература

студентка 4-курса

Абстрактный: В данной статье с научной точки зрения переосмысливаются механизмы эксплицитного и имплицитного выражения феномена молчания в художественном тексте. Молчание рассматривается не только как отсутствие речи, но и как самостоятельное художественное средство, обладающее семантической и прагматической нагрузкой. Показано, что эксплицитное молчание выражается через языковые единицы в открытой форме, тогда как имплицитное молчание раскрывается посредством контекста, подтекста и скрытых смысловых слов. В ходе

исследования проводится научный анализ функциональных возможностей молчания в раскрытии психологии персонажа, передаче внутренних переживаний и усилении художественной выразительности. В результате концептуально обобщается роль и значение молчания в художественной коммуникации.

Ключевые слова. Молчание, художественный текст, эксплицитное выражение, имплицитное выражение, подтекст, прагматика, семантика, художественное средство, психология персонажа, внутренняя речь, художественная коммуникация, контекст.

EXPLICIT AND IMPLICIT EXPRESSION OF SILENCE IN LITERARY TEXT

Egamberdiyeva Kumush Asadulla kizi

Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Department of Uzbek Language and Literature

4th-year Student

Abstract: This article explains in a simple way how silence is shown in a literary text through explicit and implicit forms. Silence is not only the absence of speech, but also an important artistic tool with its own meaning and function. Explicit silence is shown directly through words and expressions, while implicit silence is understood through context, subtext, and hidden meanings. The study looks at how silence helps reveal a character's psychology, express inner feelings, and make the text more expressive. In conclusion, the role and importance of silence in literary communication are summarized.

Key words. Silence, literary text, explicit expression, implicit expression, subtext, pragmatics, semantics, literary device, character psychology, inner speech, literary communication, context.

Kirish. Badiiy matn inson tafakkuri va psixologik jarayonlarining murakkab tizimini aks ettiruvchi ko‘p qatlamli hodisa sifatida talqin etiladi, unda nafaqat verbal ifodalar, balki noverbal unsurlar ham muhim semantik yuklama kasb etadi. Shunday unsurlardan biri bo‘lgan sukut hodisasi ko‘pincha ikkinchi darajali omil sifatida qaralgan bo‘lsa-da, u matnning ichki mazmunini shakllantirishda faol ishtirok etuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy adabiyotshunoslik tadqiqotlarida asosan nutq va uning ifoda

shakllari ustuvor o‘rganilgan bo‘lib, sukutning badiiy funksiyalari yetarli darajada tizimli tahlil etilmagan.

Sukut badiiy diskursda oddiy nutqning yo‘qligi emas, balki muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi implitsit kommunikativ munosabatni yuzaga keltiruvchi murakkab hodisa sifatida izohlanadi. U eksplitsit shaklda bevosita til birliklari orqali ifodalanishi mumkin bo‘lsa, implitsit shaklda kontekstual va subtekstual qatlamlar orqali anglashiladi. Shu bois sukutni ushbu ikki aspektda o‘rganish badiiy matnning semantik va pragmatik xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada sukutning eksplitsit va implitsit ifodalanish mexanizmlari, ularning funksional xususiyatlari hamda badiiy matn mazmunini boyitishdagi o‘rni konseptual yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv badiiy matnni o‘rganishda mavjud nazariy qarashlarni kengaytirish va sukutni mustaqil tadqiqot obyekti sifatida asoslash imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy materillari. Umuman olganda, tinglovchi (o‘quvchi)ga yetkazilayotgan axborot tarkibida ma’lum bir kodning yashirin tarzda berilishi hamda ushbu yashirin mazmunni aniqlash va anglash vazifasining qabul qiluvchiga yuklatilishi o‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida fragmentar, ya’ni uzlukli va epizodik tarzda tadqiq etilgan. Jahon pragmalogikistikasida esa bunday hodisalarni yagona nazariy doirada birlashtirish maqsadida ular **implitsitlik** tushunchasi ostida o‘rganilishi ma’qul deb topilgan.

Nutqiy muloqot jarayonida axborotning til birliklari orqali bevosita, ochiq shaklda ifodalanishi esa fikrning **eksplitsit** ifodasi sifatida talqin etiladi. Agar fikr leksik va grammatik belgilari orqali uzual ifodalanmasa-da, uning o‘quvchi (tinglovchi) tomonidan mustaqil idrok etilishi ko‘zda tutilsa, ma’noning **implitsit** ifodalanishi hisoblanadi [1]. Demak, nutqiy muloqotda fikr oshkora ifodalansa, bu **eksplitsit** ifodalanish, fikr yashirin tarzda berilsa va shu yashirin ma’noga ishora etilsa, bu **implitsit** ifodalanish sanaladi. O‘zbek tilshunosligida hozirgacha o‘rganilgan badiiy asarning zohiriy va botiniy ma’nolarini yuzaga chiqaruvchi vositalar yoki o‘zbek adabiyotshunosligidagi ma’no va tagma’no bilan bog‘liq qarashlar **implitsit** hamda **eksplitsit** hodisalari uchun umumiylik-xususiylik xarakterida bo‘ladi.

Jahon tilshunosligida implitsitlik hodisasining o‘rganilishi boshlanganiga bir asrdan oshdi. Jumladan, mazkur atamaning fanga kirib kelishini N.A.Panina nomi bilan bog‘laydilar [2]. Mavzu doirasida ming-minglab ilmiy maqolalar [3] nashr etilgan,

fundamental tadqiqotlar [4] amalga oshirilgan. Mazkur ishlar M.Hakimovning “O‘zbek pragmalingsistikasi asoslari” kitobi [5]da batafsil tahlilga tortilgani uchun biz ularni takrorlab o‘tirmadik.

O‘zbek tilshunosligida M. Hakimov tomonidan “umumyashirin” atamasi bilan ifodalangan implitsitlik hodisasini chuqur va tizimli o‘rganish jarayoni endilikda bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Bu borada A. Ko‘chiboyev implitsitlik muammosining murakkabligi va ilmiy ahamiyatini alohida ta’kidlab, uni quyidagicha izohlaydi: “Tildagi implitsitlik muammosini va uning badiiy matni tushunishdagi rolini tadqiq etish hozirgi zamon pragmalingsistikasi va kognitiv tilshunosligi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun eng murakkab hamda qiziqarli masalalardan biridir. O‘zida implitsit axborotni mujassam etgan, muallif tomonidan bevosita verbal ifodalanmagan, biroq kitobxon yoki tinglovchining o‘zi anglab yetishi nazarda tutilgan yashirin ma’nolar badiiy asarning emotsional va pragmatik ta’sir kuchini hamda muallifning badiiy mahoratini belgilovchi muhim omillardan biri ekani bugungi kunda sir emas. Badiiy matnda implitsit ifodalangan fikr, uning ifodalanish turlari va vositalari nafaqat tilshunoslar, balki adabiyotshunoslar, faylasuflar hamda psixolog olimlar tomonidan ham uzoq yillardan beri o‘rganilib kelinmoqda”.

I.N.Gorelov to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Inson ongida tayyor til materiali sifatida minglab so‘zlar zahirasi mavjud bo‘lsa-da, kommunikantlar nutqda qisqa va ta’sirchan bayon tarziga intiladilar, shunga ko‘ra, kommunikatsiya jarayonida ayrim verbal vositalar o‘rnida noverbal vositalardan foydalanadilar yoki axborotni to‘laligicha noverbal vositalarga yuklaydilar. Noverbal komponent nutqiy aktda lingvistik belgi bo‘lmagan tarkibiy qism sifatida “hazm qilinadi”. Aslida, nutqda lisoniy belgi moddiylikni – muayyan mazmunni ichki imkoniyatlari asosida o‘ziga qulay tarzda – ifodalash imkoniyatiga ega. Demak, bu imkoniyat o‘rnini ramziy struktura, noverbal vositalar egallaydi va lingvistik belgi ifodalashi mumkin bo‘lgan mazmunga putur yetkazmaydi, aksincha, uni to‘laroq ifodalash imkonini beradi”[6].

Badiiy asarda sukut ma’nosi oshkor (eksplitsit) ifodalanganda, albatta, asar muallifining izohi keltiriladi. Masalan,

Misol. Habib Sattorov uning gaplarini eshita turib “Tupurdim sening marhamatingga! Men Moskvagami, Angliyagami ketib ishlashim ham mumkin. Ammo sen shu shilta yeringdan bir qarich jila olmaysan!” demoqchi bo‘ldi-yu, **tilini tiydi**. Joy talashib, past ketishni istamadi.

Buyruqni ko‘ra solib, bostirib kirishining zaiflik alomati bo‘lganini fahmlab, o‘zini o‘zi koyidi. “Shu badbaxtning huzuridan boshimni egib chiqsam, bir umrli sharmandalik bo‘ladi”, degan fikrga kelib, qaddini g‘oz tutdi.

Uning bir oz **jim qolganini** Sohib Po‘latov o‘zicha tushunib, qo‘li baland kelganiga ishongan holda gapini davom ettirdi:

– Yana ham men sizni hurmat qilaman, azizim, Sizday olimlar ko‘chada qalashib yotgani yo‘q. Ba‘zi o‘rtoqlar buni tushunishmaydi. Hatto partbiletni stolga qo‘ysin, deydiganlar ham topildi. Men ularga qat‘iy qarshi chiqdim[7].

Olingan parchadan ko‘rinib turibdiki, so‘zlovchi(Habib Sattorov)ning “tilini tiyishi”, “jim qolishi” ijodkor tomonidan eksplitsit holatda batafsil izohlangan. Xuddi shuningdek, tinglovchi(Sohib Po‘latov)ning bu holatni qanday mushohada etganligi ham yoritib berilgan.

Misol. Qurvonbibi xo‘rsinganidan bir ozgacha nafasi bo‘g‘ziga tiqilib, gapirolmay turdi. Keyin nafasini bir oz o‘nglab, yana boyagiday xo‘rsinish ovozi bilan bo‘lib-bo‘lib so‘zladi:

– Bu nima qilganingiz? **Bu...**

– Ha, nima qilibman, bachchag‘ar?

– Ilgari... mingboshi o‘lgurga... bermayman, deb kelib edingiz... qo‘rsayib... maqtanib gapirib edingiz... “Benamozga... qiz yo‘q!” degan edingiz... Qani u qo‘rsayishlar? Nima bo‘ldi? Tuppa-tuzuk so‘fi odam bir benamoz, bir bo‘zaxo‘rga qiz berib o‘tiribsiz?

– Bersam nima bo‘pti, bachchag‘ar? O‘z qizim[8]...

Muloqot ishtirokchisi Qurbonbibining “Bu nima qilganingiz? **Bu...**” degan jumlasidan keyingi sukut uning nutqidagi oddiy pauza emas, balki chuqur mazmuniy yuklama tashuvchi implitsit ifoda sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jim qolish ortida butun hayoti davomida ro‘shnolik ko‘rmagan bo‘lsa-da, oilasi, farzandi taqdiri va jamiyat bosimiga sabr bilan chidab kelgan ayolning ichki isyoni yashiringan.

Bu isyon faqat shaxsiy dard bilan cheklanmay, balki jamiyatning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati, ota-onalarning farzand taqdiriga befarq va buyumdek yondashuvi kabi ijtimoiy illatlarga qarshi ichki norozilik sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan sukut Qurbonbibining emotsional holatini ochib beruvchi muhim pragmatik vosita vazifasini bajaradi.

Zebining fojeali taqdiri orqali muallif jamiyatdagi ma‘naviy tanazzul va adolatsizlikni umumlashtirib ko‘rsatadi. Ma’suma qiz obrazining fojeasi orqali butun bir davrning

ijtimoiy-axloqiy muammolari yoritiladi. Muallif mahorati shundaki, u keng ijtimoiy fojiani individual taqdir orqali ixcham, ta'sirchan va tushunarli tarzda ifodalashga erishgan.

Misol. Zebi o'rtog'ini astoydil koyib berdi:

– Sizdan kelgan gap shumi, hali? Otamning aytganlarini o'z qulog'ingiz bilan eshitib edingiz-ku! Eshitib-netib qolsa, nima bo'ladi? Bilib turib[9]...

Chaqir tikanakning uchida nafis oq gulcha ochiladi. Xuddi shunday Razzoq so'fidek manqurtning qo'ng'iroqday ovozli, kundek husnli oyjamol qizi bor. Zebining dugonasi (Saltanat) yo'l(arava)da undan qo'shiq kuylab berishini so'radi. Tabiiyki, otasining ra'yidan chetga chiqmagan Zebini bu taklif cho'chitib yuboradi. Shuning uchun ham uning gapi oxiri jim qolish bilan, yani verballik noverballik bilan (Bilib turib...) almashadi. Jumlani Zebining ruhiy holatidan kelib chiqib o'quvchining o'zi shaxsiy mushohadasi asosida davom ettiradi: “Bilib turib...yana gapirasiz-a?! Menga oson deb o'ylaysizmi?! Otamning kimligini bilib turib menga bu taklifni aytishingiz o'rinlimi?!” va h.

Ta'kidlash joizki, nutqiy vaziyat asosida kommunikantlar dialogida gapning ma'lum bo'laklarini tushurib qoldirish bilan implitsit hodisasini chalkashtirmaslik kerak. Masalan, “Dala-dasht lolasi bilan go'zal, Odam bolasi bilan” degan maqolning ikkinchi qismida kesim ifodalanmagan, chunki maqol matnidan birinchi qismdagi “go'zal” ot kesim ikkinchi qismga ham tegishli ekanligi yaqqol bilinib turibdi. Implitsit hodisasida esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qurshov leksemalar tushib qolgan so'zning ma'nosiga ishora qilib turadi.

Xulosa. Demak, badiiy matnlarda implitsitlik fikrni ifodalashning yashirin va bevosita aytilmagan shakli bo'lib, u gap tuzilmasidan biror grammatik komponentning tushib qolishi bilan emas, balki matn va diskurs darajasida yashirin ma'noning mavjudligi orqali yuzaga chiqadi. Bunday hodisa matnning boshida ham, oxirida ham, shuningdek, nutqiy muloqot jarayonida ishtirokchilardan birining to'liq sukut saqlashi holatida ham kuzatilishi mumkin.

O'zbek nutqida sukutning implitsit ko'rinishi ko'pincha milliy mentalitet, ijtimoiy qarashlar, qadriyatlar hamda an'anaviy madaniy me'yorlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi va ma'no ifodalash jarayoniga o'ziga xos pragmatik yuklama qo'shadi. badiiy matnda sukut hodisasi nutqning yo'qligi bilan cheklanmay, balki semantik va pragmatik jihatdan faol badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Uning eksplitsit ko'rinishi til birliklari, pauza yoki sukutni ifodalovchi leksik vositalar orqali bevosita yuzaga chiqsa, implitsit ko'rinishi kontekst, subtekst va yashirin ma'no qatlamlari orqali anglashiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sukut personajning ichki psixologik holatini ochish, emotsional kechinmalarni ifodalash hamda badiiy matnning ta’sirchanligini kuchaytirishda muhim pragmatik vazifani bajaradi. Ayniqsa, implitsit sukut o‘quvchini matnni faol talqin qilishga undab, uning ko‘p qatlamli mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, eksplitsit va implitsit sukut shakllari badiiy matnning kommunikativ va estetik imkoniyatlarini kengaytiradi hamda uning mazmuniy boyligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Долинин, К. А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. –1983. –№ 6. – С. 37.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/nut-da-ifodalanadigan-implitsitlikning-murakkab-semantik-tarkibi>
3. Арнольд И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания. –1982. –№ 4. –С. 83–91.; Долинин К.А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. – 1983. –№ 6. –С. 37–47.; Сорокин Ю.А. Еще одно лакунологическое исследование: «лакунарность как категория лексической системности» // Лакуны в языке и речи. – Благовещенск. –2005.– Вып. 2. –123 с. va b.
4. Молчанова Г. Г. Импликативные аспекты семантики художественного текста: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук.–М., 1990. –47 с.; Бакланова Е.А. Слово и имплицитный смысл в ранних рассказах В. В. Набокова (на материале сборника «Возвращение Чорба»): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Томск, 2006. –30 с.; Ермакова Е.В. Имплицитность в художественном тексте (на материале русскоязычной и англоязычной прозы психологического и фантастического реализма): Автореф. дисс. ... док. фил. наук.– Саратов, 2010.– 30 с. va b.
5. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013.– 178 б.
6. Горелов И.Н. Избранные труды по психолингвистике. – Москва: Лабиринт, 2003. – С. 173.
7. Tohir Malik. Shaytanat. 3-kitob, 133-b.
8. Cho‘lpon. Kecha va kunduz, 107-b.
9. Cho‘lpon. Kecha va kunduz, 22-b